

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI O‘RNINI
DAVLAT TASHQI SIYOSAT KONSEPSIYASIDA
MUSTAHKAMLASH MASALASI**

Nematullayev Azamat Ulug‘bek o‘g‘li

JIDU mustaqil izlanuvchisi

anematullayev9559@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar sharoitida Oliy Majlisning davlat tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Parlamentning nazorat-tahliliy funksiyalarining kuchayishi, parlament diplomatiyasining rivojlanishi hamda Oliy Majlisning xalqaro aloqalardagi faolligi ko‘rsatkichlari asosida uning tashqi siyosat konsepsiyasidagi institutsional mavqei yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy global va mintaqaviy xavfsizlik muhitida tashqi siyosatni konseptual jihatdan yangilash zarurati asoslab berilib, Oliy Majlisning tashqi siyosatdagi ishtirokini mustahkamlash masalasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari hamda Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasi tajribasi misolida qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi”da parlament rolini yanada aniq va tizimli tarzda mustahkamlash maqsadga muvofiqligi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar. Oliy Majlis, tashqi siyosat, tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi, parlament diplomatiyasi, parlament nazorati, Konstitutsiya, xalqaro shartnomalar, parlamentlararo hamkorlik, milliy xavfsizlik, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Нематуллаев Азамат Улугбек угли

независимый соискатель УМЭД

anematullayev9559@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение Олий Мажлиса Республики Узбекистан в формировании и реализации государственной внешней политики в условиях демократических реформ, проводимых с 2017 года. На основе усиления контрольно-аналитических функций парламента, развития парламентской дипломатии и показателей активности Олий Мажлиса в международных связях раскрывается его институциональное место в концепции внешней политики государства. Также обосновывается необходимость концептуального обновления внешней политики в условиях современной глобальной

и региональной среды безопасности, а участие парламента во внешнеполитической деятельности рассматривается в сравнительно-правовом аспекте на примере конституционных норм Республики Узбекистан и опыта Российской Федерации и Республики Казахстан. По итогам исследования делается вывод о целесообразности более четкого и системного закрепления роли парламента в Концепции внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан.

Ключевые слова. *Олий Мажлис, внешняя политика, концепция внешнеполитической деятельности, парламентская дипломатия, парламентский контроль, Конституция, международные договоры, межпарламентское сотрудничество, национальная безопасность, сравнительно-правовой анализ.*

Nematullayev Azamat Ulugbek ugli

Independent Researcher, UWED

anematullayev9559@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the role and significance of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in shaping and implementing the state's foreign policy in the context of democratic reforms carried out since 2017. Based on the strengthening of parliamentary oversight and analytical functions, the development of parliamentary diplomacy, and indicators of the Oliy Majlis's international activity, the study highlights its institutional position within the foreign policy concept. Furthermore, the necessity of conceptually updating foreign policy in the context of the contemporary global and regional security environment is substantiated, and the participation of parliament in foreign policy is examined through a comparative legal analysis based on the constitutional norms of the Republic of Uzbekistan and the experience of the Russian Federation and the Republic of Kazakhstan. The study concludes that it is advisable to further strengthen and clearly define the role of parliament in the Concept of Foreign Policy Activity of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords. *Oliy Majlis, foreign policy, foreign policy concept, parliamentary diplomacy, parliamentary oversight, Constitution, international treaties, inter-parliamentary cooperation, national security, comparative legal analysis.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar natijasida 2017-yildan boshlab Oliy Majlisning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni tubdan yangi

bosqichga ko'tarildi. Davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida muvozanat va o'zaro tiyib turish mexanizmlarini kuchaytirish, parlamentning vakolat va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifaga aylandi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda parlament faoliyatini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qonunlarda belgilangan normalar real siyosiy-amaliy mazmun kasb eta boshladi.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida tizimli va institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar hamda strategik hujjatlar qiyosiy-huquqiy tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishda taqqoslash va normativ-huquqiy tahlil metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalar

So'nggi yillarda Oliy Majlis tomonidan qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, davlat budjetini tasdiqlash va uning ijrosi yuzasidan Hukumat a'zolarining axborotlarini eshitish amaliyoti izchil yo'lga qo'yildi. Parlament nazoratining yangi instituti sifatida "Hukumat soati" mexanizmining joriy etilishi ijro hokimiyati faoliyatining ochiqqligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar parlamentni nafaqat qonun chiqaruvchi, balki davlat boshqaruvida faol nazorat va muvozanatlovchi institut sifatida mustahkamladi.

Shu bilan birga, Oliy Majlisning davlat tashqi siyosatini amalga oshirishdagi roli ham sezilarli darajada kengaydi. Ikki palataning parlament diplomatiyasi doirasidagi faoliyati jadallashib, xalqaro va mintaqaviy parlament tuzilmalari bilan aloqalari mustahkamlandi. Jumladan,

agar 2015–2019 yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining parlamentlararo guruhlar va parlamentlararo uyushmalardagi ishtiroki 28 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 62 taga yetdi [1]. Mazkur o'sish parlamentning tashqi siyosat konsepsiyasidagi institutsional o'rnini kuchaytirish, milliy manfaatlarni xalqaro maydonda ilgari surishda parlament omilining ahamiyatini oshirganini yaqqol ko'rsatadi.

So'nggi yillarda global va mintaqaviy xavfsizlik muhitida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar O'zbekistonning tashqi siyosati va milliy xavfsizlik tizimini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida zamonaviy xavf va tahdidlarning mazmuni hamda ko'lami tubdan o'zgarayotgani ta'kidlanib, 1997-yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va Mudofaa doktrinasini qayta ko'rib chiqish zarurligi qayd etildi[2].

Shuningdek, 15-yanvar kuni Prezident boshchiligida o'tkazilgan Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatiga bag'ishlangan videoselektor

yig'ilishida O'zbekiston Respublikasining "Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasi"ni yangilash, uning ustuvor yo'nalishlarini qayta belgilash va milliy manfaatlarni xalqaro maydonda yanada samarali himoya qilish vazifalari ilgari surildi[3].

Bugungi globallashuv va geosiyosiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda an'anaviy diplomatiya bilan bir qatorda parlament diplomatiyasi mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy jihatdan tashqi siyosatni shakllantirishda muhim subyekt hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ushbu jarayondagi roli Konstitutsiyada mustahkamlangan bo'lsa-da, uning tashqi siyosatdagi ishtirokini konseptual hujjatlar darajasida yanada aniq belgilash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasi, 93-moddasi hamda 95-moddalarida Oliy Majlisga xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish, tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash, diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini tayinlash kabi muhim vakolatlar berilgan[4]. Shu bois, Oliy Majlisning parlament diplomatiyasi va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi rolini yanada oshirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi"ga parlamentning vakolat va ishtirok mexanizmlarini mustahkamlovchi qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda parlament institutining rolini konseptual darajada mustahkamlash muhimligini ko'rsatadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasida parlament ishtiroki normativ-huquqiy jihatdan aniq belgilangan. Unda Rossiya Federatsiyasining Federal Kengashi va Davlat Dumasi o'z vakolatlari doirasida davlatning tashqi siyosiy yo'nalishini qonunchilik jihatdan ta'minlash, xalqaro majburiyatlarning bajarilishiga ko'maklashish hamda parlament diplomatiyasi vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etishi qayd etilgan[5].

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasining tashqi siyosatni rivojlantirishga oid strategik hujjatlarida ham parlament diplomatiyasidan foydalanish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, 2020-2030 yillardagi Qozog'iston Respublikasi Tashqi siyosat konsepsiyasida tashqi siyosatni rivojlantirish tendensiyalari doirasida siyosiy, iqtisodiy va gumanitar aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida parlament diplomatiyasi salohiyatidan foydalanish muhim vosita sifatida qayd etilgan[6].

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, tashqi siyosat konsepsiyalarida parlamentning o'rni va vakolatlarini aniq belgilash davlat tashqi siyosatining izchilligi, ochiqqligi hamda institutsional barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston

Respublikasining “Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi”da Oliy Majlisning tashqi siyosatni amalga oshirishdagi roli va parlament diplomatiyasi mexanizmlarini mustahkamlash xalqaro tajribaga to‘liq mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2020-2024 yillardagi faoliyati yakunlari to‘g‘risidagi hisoboti va rasmiy veb sahifa ma’lumotlari
2. Sh. Mirziyoyev. “Mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini yanada mustahkamlashning ustuvor vazifalari muhokama qilindi”,
<https://president.uz/oz/lists/view/8851>
3. Sh. Mirziyoyev. Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatini yangicha tashkil qilish vazifalari belgilab olindi,
<https://president.uz/oz/lists/view/8861>
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
5. Концепция внешней политики Российской Федерации (утверждена Президентом Российской Федерации В.В.Путиным 31 марта 2023 г.)
<https://www.mid.ru/ru/detail-material-page/1860586/>
6. “О Концепции внешней политики Республики Казахстан на 2020 – 2030 годы”,
https://www.akorda.kz/ru/legal_acts/decrees/o-koncepcii-vneshnei-politiki-respubliki-kazahstan-na-2020-2030-gody